



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 322 sahifa,
3-oktyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Use of Innovative Pedagogical Technologies in the Development of Critical Thinking	16
Gulnar Atakhanova Orinbaevna	
Current Aspects of Designing and Implementing Extracurricular Educational Activities at the Primary General Education Level.....	20
Amankosova Dinara Gabitovna	
Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi shaxsiyati va kasbiy mahorati shakllanishining nazariy asoslari....	24
Axmadaliyeva Moxlaroy To'xtapolatovna	
Pedagogical Model and Stages of Teaching Subjects Through a Project-Based Approach	28
Bannayev Qosimjon	
Lotin tili va zamonaviy tibbiy terminologiya: tarixi, vazifasi va amaliy ahamiyati	31
Eshmurodova Shirin Oybekovna	
Motor alaliyaning nonutqiy simptomatikasi	34
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Talabalar etnomadaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari	38
Isomiddinov Asliddin Baxriddin o'g'li	
Texnologiya darslarida o'quvchilarning texnik savodxonligini robototexnika elementlari asosida rivojlantirish.....	41
Jabborova Umida	
Fizika fanini mutaxassislik fanlari integratsiyasi asosida o'qitishda bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	45
Xayrullayev Asliddin Isatullayevich	
Talaba tomonidan mutaxassislik tilini o'zlashtirishda monologik nutqni o'rgatishning samarali usullari masalasi haqida.....	51
Karimov N. M.	
Zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlashda kasbiy motiv va motivatsiyaning o'rni	54
Melikova Einora Shuxratovna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda pragmatik kompetensiyaning roli.....	58
Mustafayeva Nilufar Ulashovna	
O'quvchilarda iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari	62
Nishonova Dilafuz	
Computer-Based Formative Assessment: Advantages and Challenges in Teaching English to High School Students	66
Obidjonova Shokhista Bakhtiyorovna	
Metata'lim texnologiyalari asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish.....	70
O'rolboyeva Durdona Sayfiddin qizi	
Sun'iy intellekt asosidagi darslarning an'anaviy darslarga nisbatan samaradorligini qiyosiy tahlil qilish.....	73
Rasulev Bobirjan Atxamovich	
Pedagogik faoliyatda pedagogning kasbiy taraqqiyoti motivatsiyasining psixologik xususiyatlari	78
Rustamova Surayyo Shaxobiddinovna	
Innovatsion kompetentlik tushunchasi va uning ilmiy-pedagogik asoslari.....	84
Soliyev Eliyor Ravshan o'g'li	
Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar eshituv idrokini o'yinlar yordamida rivojlantirishning samarali usullari	88
Xalilova Shahnoza	
Zamonaviy ta'limda kommunikativ kompetensiyaning o'rni va ahamiyati.....	92
Yaqubova Nigoraxon Ibrohimjon qizi	
Soliq yuki – mamlakat soliq soliq tizimining asosiy mezonidir	97
Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va takomillashtirish yo'llari	101
Ibodova Sarvinoz Sayfilloyevna	
Oliy ta'lim muassasalarida gosital pedagogika fanini o'qitishning dolzarb masalalari va uning uslubiy ta'minoti	106
Inogamova Dilfuza Rahmatullaevna	



Chizma geometriya va kompyuter grafikasi: an'anaviy fan va zamonaviy texnologiyaning uyg'unlashuvi .	111
Raximov A. M., Tairova N. S., Sabirova D. U., Xasanova S. T., Tashpulatov R. X.	
Геймификация в обучении английскому языку на начальном этапе обучения	114
Курбанова Назира Низомиддиновна	
Talabalarda tanqidiy va evristik fikrlashni shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni	117
Adjiev Nayrullo Nazrulloevich	
Konstruktiv yondashuv asosida tabiiy fanlar (science)ni o'qitish metodikasi.....	122
Amirullayeva Barno Abdulhaqovna	
Kimyo o'qitishda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning tajriba-sinov natijalari.....	126
Artiqov Maqsud Bahodirovich, Babanazarova Ayzada Omirbaevna	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni bilingvist sifatida shakllantirishda til o'rganish ko'nikmalari va kompetentsiyalarining rivojlanishi	131
Axmadjonova Gulira'no Muxtorjon qizi	
Talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda kooperativ ta'limning metodik yondashuvlari.....	135
Botiraliyeva Gulobar Mahamadismoil qizi	
Talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy sherikchilikning pedagogik va metodik asoslari	139
Dilbarjonov Avazbek Ravshanbek o'g'li	
Teacher-Centered and Child-Centered Methods in Early Childhood Education: Insights From Finland and Uzbekistan	143
Djaparova Gulnoza	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati"ni tashkil etish	150
Do'stov Davron Zulhaydarovich	
Theoretical, Methodological, and Practical Factors of Differentiated Education	155
Ergash Shonazarovich Khasanov	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishda kognitiv yondoshuv	160
Gulbahor Xamidova	
Mustaqil ta'lim – mustahkam bilim.....	164
Halima Shukurova Sunatullayevna	
Integrating Google Classroom and Project-Based Learning for Enhanced Synchronous and Asynchronous Education.....	168
Inomkhojaeva Shodiyakhon Abdukodirkhoja qizi	
O'quvchilarning innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	174
Mamadaliyev Axadjon G'aniboyevich	
Hududiy rivojlanishda innovatsion yondashuvlarni strategik boshqaruvga integratsiya qilish yo'llari.....	177
Mo'minov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
O'rta yoshdagi ayollarda harakat faoliyatini rivojlantirishda milliy o'yinlarning pedagogik ahamiyati	184
Mustafoev Sherali	
Pedagogical and Psychological Foundations of Developing Higher-Order Thinking Skills in Students.....	188
Nasimova Zarina Isomiddin kizi	
Pedagogik ijodkorlikning kasbiy professionallikda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	193
Numonova Dildor Umurzoqovna	
Ko'zi oqiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari	196
Qarshiboyev Asliddin	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish masalalari.....	200
Qilichova Marxabo Xudayqulovna	
The Transformation of Existential Thought in British Literature: Iris Murdoch's Philosophical Humanism and the Reinterpretation of Freedom	204
Rahmonqulova Zarnigor Nasimjon qizi	
Sportchilarning elektron platformalardan foydalanishning metodik tahlili	209
Saydullayev Zafar Erkinovich	
Adabiy ta'limda estetik tarbiya	216
Sharipov Elmurod Sa'dulla o'g'li	
O'qituvchi-trenerning ko'p qirrali kasbiy-pedagogik funksiyalari	220
Sulaymonov Jaxongir Solijonovich	
Uzluksiz kasbiy rivojlanishda art-pedagogikaning o'qituvchilar hissiy farovonligiga ta'siri	223
Suvanova Kamola Raimqul qizi	

Raqamlashtirish muhitida umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish	226
<i>Xamidova Komila Maxmudovna</i>	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	231
<i>Yo'ichiyev Shaxriyor Xusanovich, O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi</i>	
Совершенствование профессиональных компетенций будущих инженеров на основе интегративного подхода	235
<i>Умарова Гулчехра Абитовна</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aqliy qobiliyatining psixologik xususiyatlari	238
<i>Alanazarova Sholpan Artikbaevna, Artiqbaeva Miyassar Jumanazarovna</i>	
Biologiya ta'limida innovatsion metodlarni joriy etishda ta'lim menejmentining roli	241
<i>Allayorova Maloxat Normaxmat qizi</i>	
Integrating Innovative Technologies for the Enhancement of Speech and Communication Skills Among Learners With Intellectual Disabilities in Uzbekistan: Pedagogical Approaches and Developmental Outcomes	244
<i>Donisheva Gulruy Akhrorkulovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirishga metodik jihatdan tayyorlash	247
<i>Doniyarov Mavlonbek Arabovich</i>	
Kimyoviy birikmalarda bog'lar sonini hisoblashning yangi matematik usullari	252
<i>Ergashev Vahob Ergashevich</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	257
<i>G'aniyeva Maftuna Abduaziz qizi</i>	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida steam fanlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning metodik asoslari	261
<i>Jamolova Sitara Muzaffar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirishda didaktik o'yinlar va interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	264
<i>Mamadiyorov Jamol</i>	
Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar mustaqil faoliyatini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar	268
<i>Mamayusupova Nafisa Abdulatifovna</i>	
Para yengil atletikachilarda nayza uloqtirish texnikasini takomillashtirish uslubiyati	271
<i>Qiyomova Shohsanam Yarash qizi</i>	
Difficulties in Enhancing Communicativeness of Pre-Service English Teachers	275
<i>Kurbonova Maftuna Fakhriddinovna, Mirzayeva Gulshan Azamatovna</i>	
Principles of Teaching Basic Foreign Language Skills (EFL)	278
<i>Samandarova Gulsara Ismatilloevna</i>	
O'quvchilarning innovatsion ta'lim muhitida tayanch kompetensiyalarini shakllantirishning dolzarbligi	282
<i>Toshpulatova Farida Radjabovna</i>	
Корпоративная культура педагогов и внутренняя стабильность ДОО	286
<i>Буранова Шохноза Абдуразаковна</i>	
Развивать личностные качества учащихся на уроках географии	290
<i>Шадиева Нигора Шариповна</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida oliy ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlar	295
<i>Baytileuova Gulnaz Quralbay qizi</i>	
Yangi avlod pedagoglarini tayyorlash: kompetensiyalar va qadriyatlarining roli	298
<i>Ro'ziboyeva Ma'mura Abdunabiyevna</i>	
Astronomiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvdan foydalanib o'qitishning ta'lim tizimidagi o'rni	301
<i>Barakayeva Sarvinoz To'liqunovna</i>	
Alohida e'tiborga muhtoj bolalar bilan ishlashda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash	305
<i>Usmonov Salohiddin Dushan o'g'li, Namozova Sevinch Asqar qizi</i>	
Ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashda pedagogik qadriyatlarining ustuvorligi	310
<i>Jumayeva Gulnara Tursunpulatovna</i>	
Talabalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarini maqsadli boshqarishga tayyorlashning nazariy asoslari	314
<i>Mahmudova Zulfiya Xomitovna</i>	
Pedagogical Methodology Improve Students' Professional Mobility in Acquisition of Specialty	319
<i>Khidirova Muhabbat Murodillayevna</i>	



ALOHIDA E'TIBORGA MUHTOJ BOLALAR BILAN ISHLASHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

Usmonov Salohiddin Dushan o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Urgut filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti
Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrası katta o'qituvchisi

Namozova Sevinch Asqar qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Urgut filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Inklyuziv ta'lim zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda barcha o'quvchilar, jumladan, alohida e'tiborga muhtoj bolalar uchun ham teng sharoit yaratish ko'zda tutiladi. Ushbu maqolada inklyuziv ta'limni rivojlantirishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalasi yoritilgan. Xususan, defektologiya, logopediya, Braille yozuvi, audiokitoblar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va innovatsion o'qitish uslublaridan samarali foydalanishning ahamiyati ko'rsatib berilgan. Maqolada, shuningdek, o'quvchilarni bilim olish jarayoniga faol jalb etish, ularning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy muhitga moslashuvchanligini kuchaytirish va kelajak hayotga tayyorlash bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlar tahlil qilinadi. Xorijiy tajribalar va milliy amaliyot asosida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yangi pedagogik texnologiyalar alohida e'tiborga muhtoj bolalarning ta'lim sifatini oshirish, ularning o'z-o'ziga ishonchini mustahkamlash hamda jamiyatda faol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv inklyuziv ta'limni yanada takomillashtirish va ta'lim jarayoniga keng joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, yangi pedagogik texnologiyalar, pedagogik mahorat, defektologiya, logopediya, audiokitoblar, Braille yozuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT).

Abstract: Inclusive education is one of the key areas of the modern education system, aiming to create equal opportunities for all learners, including those with special educational needs. This article highlights the issue of applying new pedagogical technologies in the development of inclusive education. In particular, it demonstrates the importance of effectively using defectology, speech therapy, Braille writing, audiobooks, information and communication technologies (ICT), and innovative teaching methods. The paper also analyzes scientific and theoretical approaches to actively engaging students in the learning process, developing their personal abilities, enhancing their adaptability to the social environment, and preparing them for future life. Based on international experience and national practice, the article provides recommendations aimed at improving the effectiveness of inclusive education. The research results show that new pedagogical technologies contribute to improving the quality of education for children with special needs, strengthening their self-confidence, and fostering their development as active members of society. This approach plays an important role in further enhancing inclusive education and its broader implementation in the educational process.

Key words: inclusive education, new pedagogical technologies, pedagogical skills, defectology, speech therapy, audiobooks, Braille writing, information and communication technologies (ICT).



Аннотация: Инклюзивное образование является одним из важнейших направлений современной системы образования, предусматривающим создание равных условий для всех учащихся, включая детей с особыми образовательными потребностями. В данной статье освещается вопрос применения новых педагогических технологий в развитии инклюзивного образования. В частности, показано значение эффективного использования дефектологии, логопедии, шрифта Брайля, аудиокниг, информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) и инновационных методов обучения. В статье также рассматриваются научно-теоретические подходы к активному вовлечению учащихся в процесс обучения, развитию их личностных способностей, повышению адаптивности к социальной среде и подготовке к будущей жизни. На основе зарубежного опыта и национальной практики представлены рекомендации по повышению эффективности инклюзивного образования. Результаты исследования показывают, что новые педагогические технологии способствуют повышению качества образования детей с особыми потребностями, укреплению их уверенности в себе и формированию активной жизненной позиции в обществе. Данный подход имеет важное значение для дальнейшего совершенствования инклюзивного образования и его широкого внедрения в образовательный процесс.

Ключевые слова: инклюзивное образование, новые педагогические технологии, педагогическое мастерство, дефектология, логопедия, аудиокниги, шрифт Брайля, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ).

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zamirida, eng avvalo, kelajak avlodning barkamol bo'lib ulg'ayishi, hech kimdan kam bo'lmay dunyo arenalarini zabt etishga qodir farzandlar bo'lib yetishishi kabi dolzarb masalalarni hal etish turadi. Ayniqsa, yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan, nogiron, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning ijtimoiy himoyasi hamisha davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi hisoblangan. Ushbu vazifani amalga oshirish borasida O'zbekiston Respublikasida rivojlanishida nuqsoni bo'lgan kishilarning huquq va erkinliklarini, teng imkoniyatlarini ta'minlash, turmush faoliyatidagi cheklanish va chegaralarni bartaraf etish, ta'limni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuvni joriy etish, uning sifati hamda samaradorligini oshirish, jamiyatda aholining turli qatlamlari uchun ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida talaygina ishlar amalga oshirilmoqda ^[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bolalik bosqichida inson psixologik-pedagogik jihatdan kuchli ta'sirlanadi. O'sib kelayotgan bola organizmi va uning miya tuzilishining ichki imkoniyatlari chegarasizligini inobatga olgan holda tashkil etilgan korreksion-pedagogik, psixologik hamda tibbiy ishlar bolaning birlamchi nuqsonini kamaytirib, ikkilamchi nuqsonlarning oldini olishga yordam beradi. Bularning barchasi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani mustaqil, hech kimga qaram bo'lmagan holda hayot kechirishga tayyorlash omillaridir. Bolalarning ijtimoiy reabilitatsiyasi (tiklash) va ijtimoiy adaptatsiyasi (moslashuvi) – bu nafaqat qalbdagi sifatlarni, balki yangi texnologiya va innovatsiyalarning paydo bo'lishi bilan tadrijiy rivojlanib boradigan, shu bilan birga professional yondashuvni talab qiladigan murakkab sohadir. Bu sohaning takomillashuvida nogironligi bo'lgan bolalar bo'yicha idoralararo hamkorlikda muhtoj bolalarning ijtimoiy moslashuvi holatini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda.

Inklyuziv ta'lim tizimi integratsiyalashgan ta'lim tizimidan o'zining mazmun-mohiyati, maqsadi, vazifalari va harakat dasturi bilan farqlanadi. Inklyuziv ta'lim – bu davlat siyosati bo'lib, maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar (ayrim sabablarga ko'ra maxsus tarbiyaga muhtoj bo'lgan o'smirlar) rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'i nazar, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim-tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Shu boisdan ham u ahamiyatlidir. Tavsiyalarda barcha bolalarning ta'lim olish muhiti o'rganilib, maxsus ehtiyojli bolalarning ta'limiy ehtiyojlariga umumiy baho beriladi.

Inklyuziv ta'lim – o'quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik va jismoniy nuqsonlari hamda o'zlash-tirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir. "Inklyuziv ta'lim" o'z maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni hal etadi:

- inklyuziv va integratsiyalashgan ta'lim tizimi haqida ma'lumot berish;
- inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarini ochib berish;
- inklyuziv ta'limni joriy etish oldida turgan muammolarni o'rganish va ularni hal etish yo'llarini izlab topish;
- inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashning asoslarini o'rganish ^[2].



Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo'lgan farzandlarning mas'uliyatni his etadigan, davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga salmoqli hissa qo'shadigan munosib fuqarolar bo'lib yetishlariga katta umid bilan qaraladi. Shuningdek, inklyuziv ta'lim davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'i nazar, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Barcha bolalar qobiliyatlari va imkoniyatlaridan qat'i nazar, davlat tomonidan sifatli ta'lim bilan ta'minlanishi kerak. Maxsus ta'lim tizimi imkoniyati cheklangan bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, ushbu ta'lim tizimi yopiq, differensial shaklda olib borilishi sababli bola maktabni tugatgach, ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishda qiyinchiliklarga duch keladi. Shuningdek, ularning o'z oilasidan uzoqda bo'lishiga majbur bo'lishi, boqimandalikka o'rganib qolishiga ham sabab bo'ladi. Natijada ular o'z-o'ziga xizmat qilishda bir qator qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bundan tashqari, juda ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar uchun tashkil etilgan maxsus ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoni maxsus korreksion ta'lim talablari, ya'ni o'quv rejalar, korreksion dasturlar va darsliklar asosida amalga oshiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'quv va tarbiya jarayonida har bir bolaning individual xususiyatlari, qobiliyati hamda imkoniyati e'tiborga olinishi kerak. Nuqson turi bo'yicha tashkil etilgan o'quv muassasalarida mutaxassis defektologlar (logoped, tiflopedagog, surdopedagog, oligofrenopedagog) ta'lim-tarbiya jarayonini olib boradilar. Ta'limning maqsad va vazifasidan kelib chiqqan holda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga nuqsonni bartaraf etishga mo'ljallangan korreksion mashg'ulotlar o'tkaziladi. Maxsus ta'limning asosiy vazifasi – rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni korreksion-rivojlantiruvchi uslubda o'qitish va tarbiyalashdir. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'lim dasturlari yetarli darajada rivojlanmaganligi, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari dasturlarida o'qituvchilarning inklyuziv ta'lim bo'yicha maxsus tayyorgarligini ta'minlash lozimligi qayd etilgan ^[1]. Ushbu toifadagi bolalarning ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, maxsus ta'lim jarayoniga yangi innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni olib kirish, maxsus ehtiyojli bolalarning ta'limini to'g'ri tashkil etish ularni ijtimoiy jamiyatga moslashtirishning asosiy maqsadidir. Ta'lim mazmunini takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish maqsadida davlat ta'lim standartlari asosida maxsus darsliklarning yangi nashrlarini yaratish, korreksion mashg'ulotlarga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish va kadrlar salohiyatini oshirish masalalari amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyati, nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumta'lim tizimida ta'lim olishini ta'minlash maqsadida inklyuziv ta'lim siyosati, ya'ni umumta'lim muassasalarida nogiron bolalarni tarbiyalash uchun zarur sharoitlarni bosqichma-bosqich yaratish orqali imkoniyati cheklangan har bir bolani inklyuziv ta'lim olish huquqini amalga oshirish mexanizmi yo'lga qo'yilmoqda. Inklyuziv ta'lim qonunda mustahkamlangan ijtimoiy tenglik va umumbashariy hamjihatlik tamoyillari asosida har bir insonning munosib hayot kechirishini ta'minlash, o'zlariga yordam berish va adolat tamoyiliga asoslanib ne'matlar taqsimlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishni nazarda tutadi.

Inklyuziv ta'limda metodik yordam turlari turli shakllarda bo'lib, ular o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmalari, panduslar, tutqichlar va boshqalar) hamda tegishli kadrlar (pedagog-defektolog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash;
- sinf o'qituvchisiga maslahat va amaliy yordam berish;
- maxsus o'qitish qo'llanmalari va yordamchi materiallar bilan ta'minlash;
- ota-onalar, ko'ngillilar yoki katta o'qituvchilar tomonidan mavjud yordamlarni tashkil etish;
- o'quv reja bo'yicha dars jadvali va baholash mezonlarini moslashtirish hamda o'zgarishlar haqida pedagoglar va ota-onalarni xabardor etish;
- o'qituvchi va tarbiyachilarning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish uchun sharoit yaratish;
- barcha uchun teng huquqli, ijobiy maktab muhitini tashkil etish va ta'lim jarayonida do'stona munosabatni shakllantirish;
- ijtimoiy, psixologik, pedagogik va tibbiy xizmatlarni kompleks tarzda tashkil etish.

Inklyuziv ta'limda maxsus ehtiyojli bolalarga ta'lim-tarbiya berishda bolaning yoshi, nuqson turi va darajasiga qarab ularni turli sinflarga joylashtirish, dars jarayonini bola imkoniyatiga mos tarzda tashkil etish va ta'limni shaxsiy qobiliyat hamda ehtiyojga qarab moslashtirish talab etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik texnologiyalar zamonaviy o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim maqsadlariga erishishda katta rol o'ynaydi. Ular o'qituvchilar va o'quvchilarga kerakli natijaga erishishda yordam beradigan turli xil o'qitish usullari, yondashuvlari va vositalarini ifodalaydi. Pedagogik texnologiyalarning samaradorligini baholash, ularning amaliy natijadorligini hamda kelgusida ulardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan pedagogik tizimning loyihasi hisoblanadi. Pedagogik tizim o'zaro bog'liq vositalar, usullar va jarayonlar majmuasidan iborat bo'lib, shaxsda muayyan sifatlarni shakllantirishga pedagogik ta'sirni maqsadga muvofiq tarzda amalga oshiradi. Shu sababli, har bir jamiyatda shaxsni shakllantirish maqsadi belgilab olinadi va unga mos pedagogik tizim yaratilishi zarur.

Pedagogik texnologiyalarning asosiy vazifasi – pedagog-o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyatidan xabardor qilish, ularni maxsus fanlarni o'qitishda noan'anaviy shakllarni qo'llashga yo'naltirish, ta'lim jarayonini mukammal modul asosida loyihalash hamda ta'lim jarayonini oqilona tashkil etish ko'nikmalariga ega bo'lishga o'rgatishdan iborat. Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatga ega, ya'ni har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati va kasbiy mahoratidan kelib chiqib ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod yoki vositalar qo'llanilishidan qat'i nazar, pedagogik texnologiyalar quyidagi natijalarga erishishi kerak:

- o'quv jarayonida pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish;
- ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilim egallanishini ta'minlash;
- o'quvchilarda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish;
- erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etishga qodir yosh avlodni tarbiyalash.

O'quv jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning intellektual, ijodiy va axloqiy rivojlanishining zaruriy shartidir. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq holda o'qituvchilar tomonidan ularning samaradorligini baholash zarurati tug'iladi. Ushbu baholash metodikasi o'zgarishlarni monitoring qilish, tizimning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda faoliyat samaradorligini tahlil etish uchun xizmat qiladi. Baholashdan maqsad – o'tgan faoliyatni baholash bilan birga joriy faoliyatni tahlil qilish va istiqbol uchun tavsiyalar ishlab chiqishdir. O'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash quyidagi mezonlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va usullarini bilish darajasi.
- Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi.
- Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish ^[2].

Bugungi kunda ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishda har bir bolaning shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olish muhimdir. Xususan, alohida e'tiborga muhtoj bolalar bilan ishlash ta'lim tizimining eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Ularning intellektual, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Yangi texnologiyalar bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash, bilimlarni o'zlashtirishda samaradorlikka erishish hamda jamiyatga integratsiyalashuvini yengillashtirishga xizmat qiladi ^[3].

- 1. Yangi pedagogik texnologiyalarning ahamiyati.** Alohida e'tiborga muhtoj bolalarning rivojlanish sur'ati va o'zlashtirish qobiliyati boshqalarnikidan farq qiladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta'limni individuallashtirishga, har bir bolaning qiziqishi va imkoniyatidan kelib chiqib yondashishga imkon yaratadi. Zamonaviy metodlar orqali nafaqat bilim, balki mustaqil fikrlash, muloqot va ijtimoiy ko'nikmalar ham rivojlantiriladi.
- 2. Qo'llanilishi mumkin bo'lgan texnologiyalar.**
 - Differensial yondashuv – topshiriqlar bolalarning bilim darajasiga qarab moslashtiriladi.
 - Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) – maxsus dasturlar, interaktiv doskalar, audio va video materiallar yordamida ta'lim samaradorligi oshiriladi.
 - Inkluziv ta'lim texnologiyalari – alohida ehtiyojli bolalarning sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda o'qishi ularning ijtimoiylashuviga yordam beradi.



- O'yin texnologiyalari – o'yin asosidagi mashg'ulotlar bolalarda qiziqishni kuchaytiradi va bilimlarni yodda saqlashni osonlashtiradi. Loyiha usuli – kichik loyihalar orqali ijodkorlik, mustaqil fikrlash va hamkorlik rivojlanadi.

Amaliy misollar:

- eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun subtitrlar videodarslar va eshitish apparatlaridan foydalanish;
- ko'rishida qiyinchiliklari mavjud bolalar uchun audio kitoblar, brail yozuvi va ovoqli dasturlarni qo'llash;
- rivojlanishida kechikishi bo'lgan bolalar uchun takrorlashga asoslangan mashqlar, ko'rgazmali vositalar va psixologik qo'llab-quvvatlashni ta'minlash kabi usullar amalda samarali natija beradi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida alohida e'tiborga muhtoj bolalar bilan ishlash, ularni jamiyat hayotiga faol qo'shish va sifatli bilim berish eng muhim masalalardan biridir. Shu jarayonda yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish katta ahamiyatga ega. Biroq, ularni samarali qo'llashda ayrim muammolar ham uchramoqda. Avvalo, o'qituvchilarning malakasi va tayyorgarligi yetarli emasligi muhim muammo sanaladi. Ko'plab pedagoglar inklyuziv ta'lim uchun zarur metodik ko'nikmalarga ega emas. Bundan tashqari, maktablarda zamonaviy texnik vositalar va dasturlar yetishmaydi. Shuningdek, har bir bolaning ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyati turlicha bo'lgani sababli, yagona yondashuv barcha uchun samarali bo'la olmaydi. Ba'zan ota-onalarning befarqligi ham jarayonni qiyinlashtiradi.

Bunday muammolarni hal etish uchun quyidagi yechimlar taklif etiladi:

- pedagoglarning malakasini oshirish va maxsus treninglar tashkil etish;
- ta'lim muassasalarini zamonaviy texnologiyalar va dasturlar bilan ta'minlash;
- har bir bola uchun individual ta'lim dasturi ishlab chiqish;
- ota-onalarni ta'lim jarayoniga faol jalb etish.

XULOSA

Maktabda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar bolalarning yosh va individual xususiyatlari, aqliy rivojlanish darajasi, somatik hamda asab-ruhiy sog'lig'i holatiga muvofiq tashkil etiladi. Inklyuziv ta'limda rivojlanishida turli nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhit yaratiladi. Jamoatchilikda bag'rikenglik, insonlar o'rtasida mehr-muhabbat, o'zaro yordam va g'amxo'rlik fazilatlarini keng shakllanadi. Umumta'lim jarayonida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatini rivojlantirish, emotsional-irodaviy sohasini mustahkamlash, bilish faoliyatini faollashtirish hamda ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga psixologik-pedagogik maslahatlar berish, ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, metod va vositalarni qo'llash sohasida pedagoglarning xabardorlik darajasini oshirish ishlari izchil amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son. <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>
2. Madatov Ilhom Yusup o'g'li. Inklyuziv ta'lim. Darslik. – Toshkent: 2024. – 13–20-betlar.
3. H.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. – Toshkent: 2009. – 201–206-betlar.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 13.08.2021 yildagi PQ-5210-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 22.10.2021 yildagi 645-son.
6. UNESCO. Inclusive Education: The Way of the Future. International Conference on Education, Geneva, 2008.
7. Florian L. Inclusive Practice: What, Why and How? – Cambridge: Cambridge University Press, 2017.
8. Slee R. The Irregular School: Exclusion, Schooling and Inclusive Education. – London: Routledge, 2011.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.